# Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2020-yil yanvar-oktabr)*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2020-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 52,6 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 103,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (86,7 %) ni tashkil etdi.







***B** – Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** – Ishlab chiqaradigan sanoat **D** – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E** – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI*** *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 4,8 % ga pasayishi kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatda – 6,6 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kon ditsiyalashda – 15,0 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 1,6 % ga o'sish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi -** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *% da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2019,0 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,8 % ini tashkil etdi.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

**Ko‘mir**




Kaolin




**Tabiiy gaz**




## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-oktabr | 2020-yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Ko‘mir, ming t. | 2877,1 | 2913,2 | 36,1 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 218,4 | 255,1 | 36,7 |
| Chaqiq tosh, ming t. | 376,0 | 304,6 | -71,4 |
| Shag‘al , ming t. | 116,4 | 38,6 | -77,8 |
| Kaolin, ming t. | 181,0 | 273,9 | 92,9 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2020-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 45671,6 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,7 % ini tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2019-yilning yanvar-oktabr oylarida - 0,5 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 11,4 % (11,7 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 51,5 % (51,8 %) va quyi texnologiyalisi - 22,4 % (22,2 %) ni tashkil etdi.

### Yuqori texnologiyali




### O‘rta-yuqori texnologiyali




### O‘rta-quyi texnologiyali




### quyi texnologiyali



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va oʻrnatish, avto transport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 4,7 % (2019-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 43,1 % (2019-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 97,7 %), toʻqimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,8 % (2019-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 117,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,8 % (2019-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,3 % (2019-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 123,4 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning oʻsish sur’ati

2020- yilning yanvar- oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 192,6 ming dona avtomobil dvigitellari (2019- yilning yanvar- *oktabr* oylariga nisbatan 16,4 % ga oʻsgan), 23,1 ming tonna kalava ip (4,7 m), 278,7ming tonna yumshoq bugʻdoy va spelta uni (5,7 %), 119,1mln. litr pivo mahsulotlari (18,6 %) ishlab chiqarilib, yuqori oʻsish sur’atlari kuzatildi.

**Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

**Oʻsimlik yogʻI (tozalangan)** | **Pishloq va tvorog** | **Yumshoq bugʻdoy va spelta uni**




**Pivo** | **Aroq** | **Uzum vinosi**










**Sement**




**Paxta chigiti**




**Kalava ip**




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-oktabr | 2020-yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** ming t. | 263,7 | 278,7 | 15,0 |
| **Paxta tolasi,** ming t. | 12,8 | 38,4 | 25,6 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.** | 5,4 | 4,9 | -0,5 |
| **Portlandsement,** *ming t.* | 4208,6 | 4107,4 | -101,2 |
| **Kultivatorlar,dona** | 1608,0 | 573,0 | -1035,0 |
| **Avtomobil dvigitellari, ming dona.** | 165,4 | 192,6 | 27,2 |

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan ammoniy sulfat (2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 121,0 %), ammoniy nitrat (113,8 %) hamda etil spirti (103,3 %) mahsulotlarida o‘sish ko‘rsatkichlari qayd etildi.

## O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, *% da*




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

*2020- yilning yanvar- oktabr oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4759,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (9,0 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 15,0 % ga oshganligi kuzatildi.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-oktabr | 2020-yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt/s* | 15042,1 | 13865,2 | -1176,9 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 2716,5 | 3044,9 | 328,4 |

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-oktabr | 2020-yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz,** *ming kub. m.* | 218394,0 | 255148,0 | 36754,0 |

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 181,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-oktabr | 2020-yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar,** ***mln.so'm*** | 32670,6 | 30415,7 | -2254,9 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlar,** ***mln.so'm*** | 72060,1 | 76125,8 | 4065,7 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 1,6 % o'sishi kuzatildi.

# Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10937,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 6,9 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 20,8 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 15,6 % (2019-yil yanvar-oktabr oylarida 18,2 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Zangiota tumaniga to'g'ri kelib,17,2 % ni, shuningdek, Ohangaron shahri 11,4 % ni, Qibray tumani 10,1 % ni, Angren shahri 9,0 % ni hamda Chirchiq shahri 8,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (111,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bekobod (176,7 %), Ohangaron (175,9 %), Angren (137,2 %) shaharlarida hamda Quyichirchiq tumanida (218,8%) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati, *2020-yilning yanvar-oktabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Nurafshon | 133,6 | 1,2 | 106,6 |
| Bo'ka | 92,6 | 0,8 | 64,9 |
| Olmaliq | 249,4 | 2,3 | 79,5 |
| Zangiota | 1 876,3 | 17,2 | 111,2 |
| Angren | 986,9 | 9,0 | 137,2 |
| Yuqorichirchiq | 604,5 | 5,5 | 93,7 |
| Bekobod | 233,1 | 2,1 | 176,7 |
| Quyichirchiq | 282,4 | 2,6 | 218,8 |
| Ohangaron | 1 248,5 | 11,4 | 175,9 |
| Qibray | 1 099,3 | 10,1 | 114,9 |
| Chirchiq | 933,7 | 8,5 | 103,3 |
| Parkent | 207,5 | 1,9 | 93,8 |
| Yangiyo'l | 240,4 | 2,2 | 90,7 |
| Piskent | 315,0 | 2,9 | 103,7 |
| Oqqo'rg'on | 389,7 | 3,6 | 125,0 |
| O'rtachirchiq | 205,3 | 1,9 | 63,3 |
| Ohangaron | 138,6 | 1,3 | 82,4 |
| Chinoz | 186,2 | 1,7 | 70,5 |
| Bekobod | 106,8 | 1,0 | 89,7 |
| Yangiyo'l | 314,9 | 2,9 | 112,4 |

**Bo'stonliq**

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 440,7 | 4,0 | 102,6 |

**Toshkent**

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 652,2 | 6,0 | 94,9 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Ohangaron shahriga to'g'ri kelib, 13,4 % ni, shuningdek, Chirchiq shahrida 12,8 % ni, Zangiota 10,7 % ni, Toshkent 7,1 % ni hamda Qibray tumanlarida 6,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Quyichirchiq tumanida (229,3 %), Ohangaron (183,5 %), Bekobod (181,1 %) hamda Angren (131,0 %) shaharlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

*2020- yilning yanvar- oktabr oylarida*

**Nurafshon.**

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 89,4 | 1,8 | 110,3 |

**Bo'ka**

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 48,0 | 1,0 | 60,3 |

**Olmaliq**

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 173,7 | 3,4 | 83,4 |

**Zangiota**

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 542,8 | 10,7 | 89,7 |

**Angren**

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 435,1 | 8,6 | 131,0 |

**Yuqorichirchiq**

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 237,0 | 4,7 | 79,0 |

**Bekobod**

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 162,4 | 3,2 | 181,1 |

**Quyichirchiq**

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 167,6 | 3,3 | 229,3 |

**Ohangaron**

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 677,0 | 13,4 | 183,5 |

**Qibray**

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 336,6 | 6,7 | 112,0 |

**Chirchiq**

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 645,0 | 12,8 | 96,2 |

**Parkent**

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 101,7 | 2,0 | 108,7 |

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Yangiyo'l | 145,8 | 2,9 | 102,4 |
| Oqqo'rg'on | 138,5 | 2,7 | 151,5 |
| Ohangaron | 79,2 | 1,6 | 80,4 |
| Bekobod | 54,3 | 1,1 | 87,9 |
| Bo'stonliq | 136,7 | 2,7 | 92,8 |
| Piskent | 119,2 | 2,4 | 127,4 |
| O'rtachirchiq | 125,0 | 2,5 | 60,9 |
| Chinoz | 93,9 | 1,9 | 65,4 |
| Yangiyo'l | 180,6 | 3,6 | 113,2 |
| Toshkent | 361,0 | 7,1 | 95,4 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Zangiota tumaniiga to‘g‘ri kelib, 12,2 % ni, shuningdek, Qibray tumani 7,0 % ni, Ohangaron shahri esa 5,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Ohangaron (167,7 %), Bekobod (167,3 %), Angren shaharlarida (142,5 %) qayd etildi.

**Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**
*2020-yilning yanvar-oktabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Nurafshon | 44,3 | 0,4 | 99,8 |
| Bo'ka | 44,6 | 0,4 | 70,8 |
| Olmaliq | 75,7 | 0,7 | 71,7 |
| Zangiota | 1 333,6 | 12,2 | 123,2 |

### Angren

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 551,8 | 5,0 | 142,5 |

### Bekobod

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 70,7 | 0,6 | 167,3 |

### Ohangaron

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 571,5 | 5,2 | 167,7 |

### Chirchiq

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 288,8 | 2,6 | 123,5 |

### Yangiyo'l

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 94,7 | 0,9 | 77,1 |

### Oqqo'rg'on

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 251,0 | 2,3 | 114,1 |

### Ohangaron

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 59,4 | 0,5 | 85,2 |

### Bekobod

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 52,5 | 0,5 | 91,6 |

### Bo'stonliq

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 304,1 | 2,8 | 107,7 |

### Yuqorichirchiq

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 367,5 | 3,4 | 106,5 |

### Quyichirchiq

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 114,7 | 1,0 | 205,1 |

### Qibray

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 762,7 | 7,0 | 116,3 |

### Parkent

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 105,7 | 1,0 | 82,9 |

### Piskent

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 195,9 | 2,7 | 93,1 |

### O'rtachirchiq

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 80,2 | 0,7 | 67,5 |

### Chinoz

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 92,4 | 0,8 | 76,5 |

### Yangiyo'l

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 134,3 | 1,2 | 111,5 |

### Toshkent

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 291,2 | 2,3 | 94,4 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2020-yilning yanvar-oktabr oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 11256,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 21,4 % ni tashkil etdi.

## Toshkent viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*2020-yilning yanvar-oktabr oylarida*

**Toshkent viloyati**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 52631,1 | 100,0 | 103,7 |

**Nurafshon**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 649,8 | 1,2 | 114,8 |

**Bo'ka**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 158,1 | 0,3 | 95,8 |

**Olmaliq**

| Млрд. сум | Ulushi % da | O‘sish sur’ati |
|---|---|---|
| 19968,9 | 37,9 | 103,3 |

**Zangiota**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 4764,5 | 9,1 | 111,9 |

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Angren | 3831,5 | 7,3 | 101,3 |
| Ohangaron | 2885,3 | 5,5 | 122,5 |
| Bekobod | 5267,1 | 10,0 | 110,7 |
| Chirchiq | 3900,2 | 7,4 | 110,4 |
| Yangiyo'l | 501,2 | 1,0 | 95,9 |
| Oqqo'rg'on | 530,9 | 1,0 | 118,2 |
| Ohangaron | 363,0 | 0,7 | 118,0 |
| Bekobod | 217,2 | 0,4 | 107,6 |
| Bo'stonliq | 1231,2 | 2,3 | 93,0 |
| Qibray | 3281,1 | 6,2 | 107,9 |
| Quyichirchiq | 479,7 | 0,9 | 137,4 |
| Parkent | 262,0 | 0,5 | 103,2 |
| Piskent | 272,2 | 0,5 | 98,8 |
| O'rtachirchiq | 515,4 | 1,0 | 119,5 |
| Chinoz | 494,5 | 0,9 | 95,6 |
| Yuqorichirchiq | 1251,8 | 2,4 | 114,8 |
| Toshkent | 1007,3 | 1,9 | 99,5 |
| Yangiyo'l | 798,0 | 1,5 | 96,2 |

## Toshkent viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati, *% da*

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishini, Bo'stonliq (2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 93,0 %), Bo'ka 95,8 %), Chinoz (95,6 %) tumanlarida hamda Yangiyo'l shahri (95,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.

| Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, *% da* | Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘sish sur’ati, % da |
|---|---|




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Quyichirchiq (2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 137,4 %), Oqqo'rg'on (118,2 %), O'rtachirchiq (119,8 %) va Zangiota (111,9 %) tumanlarida hamda Ohangaron shahrida (122,5 %) sezilarli darajada oshdi.

## Toshkent viloyatida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng koʻp ulush Olmaliq (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 37,9 %), Bekobod (10,0 %), Chirchiq (7,4 %), Angren (7,3 %) va Ohangaron (5,5 %) shaharlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

Eng past koʻrsatkich esa Bo'ka (0,3 %) hamda Bekobod (1,5 %) tumanlariga toʻgʻri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq (15174,2 ming soʻm), Ohangaron (76039,5 ming soʻm) va Bekobod (54800,3 ming soʻm) shaharlarida hamda Zangiota tumanida (24058,9 ming soʻm) oʻrtacha viloyat darajasi koʻrsatkichidan (17 830,5 ming soʻm) ancha yuqoriligini koʻrsatmoqda.

Viloyat boʻyicha aholi jon boshiga isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3705,5 ming soʻm boʻlgani holda, Ohangaron shahrida – 32903,0 ming soʻmni, Zangiota tumanida – 9474,7 ming soʻmni, Qibray tumanida – 5468,4 ming soʻmni, Chirchiq shahrida 5920,5 ming soʻmni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2020-yilning yanvar-oktabr oylarida, ming so‘m*

| Hudud | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 17 830,5 | 3 705,5 |
| Nurafshon | 13 311,5 | 2 737,8 |
| Bo'ka | 1 254,9 | 735,0 |
| Olmaliq | 151 743,2 | 1 895,0 |
| Zangiota | 24 058,9 | 9 474,7 |
| Angren | 20 267,2 | 5 220,5 |
| Qibray | 16 322,3 | 5 468,4 |
| Ohangaron | 76 039,5 | 32 903,0 |
| Quyichirchiq | 4 434,1 | 2 609,9 |
| Bekobod | 54 800,3 | 2 425,2 |
| Parkent | 1 685,9 | 1 334,8 |
| Chirchiq | 24 730,0 | 5 920,5 |
| Piskent | 2 693,2 | 3 117,2 |
| Yangiyo'l | 8 264,1 | 3 964,4 |
| O'rtachirchiq | 3 435,8 | 1 368,2 |
| Oqqo'rg'on | 5 044,7 | 3 702,9 |
| Chinoz | 3 687,2 | 1 388,5 |

| | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Ohangaron | 3 782,0 | 1 444,0 |
| Yuqorichirchiq | 9 212,3 | 4 448,8 |
| Bekobod | 1 375,5 | 676,4 |
| Toshkent | 5 562,5 | 3 601,6 |
| Bo'stonliq | 7 268,1 | 2 601,8 |
| Yangiyo'l | 3 790,2 | 1 495,4 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2020-yilning yanvar-oktabr oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10880,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 20,7 % ni tashkil etdi.





Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bo'ka (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (93,4 %), Parkent (90,3 %), Chinoz (74,0 %), Ohangaron (71,2 %), O'rtachirchiq (70,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Olmaliq (1,3 %), Bekobod (3,8 %) va Chirchiq (18,6 %) shaharlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**
*(2020-yil 1-noyabr holatiga ko‘ra)*




Bugungi kunda viloyatda 8552 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1293 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 18,1 %) Zangiota tumaniga 780 tasi (9,1 %) Qibray tumaniga, 719 tasi (8,4 %) Toshkent tumaniga 440 tasi (5,1 %) Chirchiq shahriga 424 tasi (7,2 %) Angren shahriga 513 tasi (6,0 %) Yuqorichirchiq tumaniga to‘gri kelmoqda.

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda 1278 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 101 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 7,9 %) Qibray tumanida, 156 tasi (12,2 %) Zangiota tumanida, 80 tasi (6,3 %) Toshkent tumanida, 70 tasi (5,5 %) Parkent tumanida, 69 tasi (5,4 %) Quyichirchiq tumanida tashkil etildi.




**Sanoat statistikasi bo'limi**
*Tel.: (71) 202-86-66*